

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR ILMIY QARASHLAR

**Saidova Ozoda Tohirovna**

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish borasidagi nazariyalar va ilmiy qarashlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedgog, o‘qituvchi, jamiyat, yoshlar, pedagogik, kompetentlik, dars, ma’naviy ma’rifiy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1] deya bildirgan fikrlari davlatimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Hozirda globallashuv jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgani hech kimga sir emas. Bunday shiddat bilan kirib kelishining bir qancha omillari bor albatta. Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora ortib, inson qalbi va ongini egallash, avvalambor, yoshlarning ma’naviy olamini izdan chiqarish, ularni o‘z qarindoshlariga qarama-qarshi qo‘yishga qaratilgan, el-yurtiga qarshi qo‘yishga qaratilgan tahdid va xurujlar kuchayib borayotgan bir paytda bugungi kun avlodining siyosiy faolligini oshirish, uning hayotda o‘z o‘rnini egallash, ta’lim-tarbiya maskanlarida yetuk inson bo‘lib yetishish masalalari dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishida, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli qarorida oliy ta’lim tizimi sifatini yaxshilash va yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar kabi ustuvor vazifalar nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham “...oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat

yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirish zarur, oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlarini ko'paytirib, yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim" deb ta'kidlangan [2].

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga katta e'tibor qaratilishi lozim.

O'qituvchi – ta'lim va tarbiya mazmunining boshqaruvchisi, o'quvchilarning butun ongli faoliyatining tashkilotchisi hisoblanadi. Uning shaxsida pedagogik qadr-qimmatning obyektiv va subyektiv xususiyatlari ifodalanadi. U obyektiv bilim, malaka va ko'nikmalarning miqdorini o'zlashtiradi va shaxsiy qobiliyatlari me'yorida ularni shakllantirishni tashkil qiladi.

Jamiyat rivojlangani sari shu jamiyat talabiga javob beradigan shaxslarni yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan. Yosh avlodni o'qituvchilik kasbi yo'nalishida o'qitish va tarbiyalash sohasida tajribalarning boyishi, nazariy jihatdan kengayishi va hayotda qo'llanilishi natijasida pedagogika alohida fan sifatida rivojlandi. Chunki, bugungi kun yoshlarini har tomonlama "... mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu sababli, yoshlar har soniya bilim olishdan, olgan bilimlaridan kelib chiqib tajribasini oshirishdan to'xtamasligi lozim. Zero, ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda mamlakatimizni taraqqiyot sari yetaklash oliy maqsaddir" [3].

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Hozirgi zamonda hayot juda o'zgaruvchan. Ta'limdagi katta o'zgarishlar o'qituvchining kasbiy ongidagi o'zgarishlarsiz bo'lmaydi. Zamonaviy o'qituvchida zarur bo'lgan ko'plab yangi bilimlar, tushunchalar paydo bo'ldi. Shunday tushunchalardan biri kompetentlilikdir. Bu nima? Biz bu haqda qanday tasavvurga egamiz, ana shu haqda fikr yuritmoqchimiz. **Kompetentlilik** - bu o'qituvchining noaniq holatda harakat qilish qobiliyati. Hozirgi zamon o'qituvchisi doimo ijodiy izlanishda bo'ladi, shuningdek, o'quvchini nimaga o'rgatish kerak kabi dolzarb

savolga javob qidirishi lozim. Zamonaviy o'qituvchi ishiga va o'quvchilarga bo'lgan mehrini o'ziga mujassam etish, nafaqat bolalarni o'qitishi, o'zi ham ulardan o'rgana olishi zarur. Zamonaviy pedagog har bir boladagi eng yaxshi sifatlarni yuzaga chiqarib, ularni rag'batlantirishi kerakki, bu bolalar maktabni tugatganlaridan keyin ham olgan bilimlaridan quvonib, jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari, unga sidqidildan xizmat qilishlari zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan bo'lajak o'qituvchini har tomonlama kamolga yetkazish, yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalash, unda kasbiy-ijodiy ko'nikma va malakalarni tarbiyalashda pedagogik ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Muammoni o'rganish zamonaviy globallashuv, jadallashuv va modernizatsiya davrida bo'lajak o'qituvchi qiyofasida aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, badiiy-estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik madaniyat hamda sog'lom turmush tarziga ega bo'lishni ifodalovchi sifatlarni bilan bir qatorda zamonaviy pedagog kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi va bugungi kunda qanday sodir bo'lishi kerak? - degan dolzarb savol tug'iladi.

Bo'lajak mutaxassislar uchun jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirildi. «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi» da davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xorijiy tillarni chuqur o'rganish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi [8]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli 5-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi mazkur faoliyatga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak muammoni nazariy jihatdan o'rganish bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari yetarlicha tahlil qilinmagan, bu jarayonning mazmuni va muhim tamoyillari bugungi kun talablari darajasida asoslanmaganligini ko'rsatdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Musurmonova O. Family healthy generation in nurturing the family-neighborhood-education institutions of cooperation priority directions // "Young oilaparvar, father-motherhood in the preparation of the family 's role" on the topic the republic scientific-practical conference materials. – T., 2013. – B. 217.
2. Axmedov A. The negative effect of internet gambling on youth psychology //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 5. – С. 76-79.
3. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
4. Саидов А. pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
5. Ismoilovich S. A. Socio-psychological problems of the formation of the psychology of a healthy lifestyle of families.
6. Sharifjon To'lqin o'g A. et al. Ta'lim-tarbiya tizimi va o'qituvchilar faoliyatida psixologik xizmatning ahamiyati //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2022. – т. 1. – №. 11. – с. 57-60.
7. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //Central asian journal of literature, philosophy and culture. – 2021. – т. 2. – №. 12. – с. 4-7.